

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA HIS-HAYAJON GAPLARNING SHAKLLANISHDA EMOTIV SO‘ZLARNING O‘RNI VA ROLI

Minosidinov Sherzodbek

Annotatsiya. Jahon xalqlarining til – tafakkur – hissiyot ketma-ketligi asosida emotsional leksikasi shakllantiriladi, shuningdek, ob’yektiv haqiqatni tushunish, idrok etish va tushuntirishga qaratilgan his-hayajon gaplar yaratiladi. Bunday gaplar emotsionallik bilan birga baholash, obrazlilik, ekspressivlik va intensivlikka ham xizmat qiladi. Til tizimining inson his-tuyg‘ularini ifodalash va unga ta’sir qilish elementlarini qamrab oluvchi his-hayajon gaplar ijtimoiy-psixologik ta’sirlanish manba sifatida jahon tilshunosligida alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: emotiv nominatsiya, emotsional so‘zlar, morfologik xususiyat, sinxron, diaxron, emotiv munosabat.

Emotsional so‘zlar voqelikni bilish, idrok etish vositalaridan biridir. Ular lisoniy birlik sifatida o‘zida axborotni yig‘adi, saqlaydi va uzatadi, avloddan-avlodga o‘tadi. Shu ma’noda ular kognitiv jarayon kechishida alohida o‘rin tutadi.

Emotsional so‘zlar garchi leksik (atash) ma’nosini ifoda etmasa-da, ongda idrok etiladi va tushuncha hosil qiladi. Lisoniy moddiylashgani tufayli xotiradan o‘rin egallagan. Bizningcha, bunga ularning ong va til tizimiga daxldorligi zamin yaratgan. To‘g‘ri, emotsional so‘z ular tasavvurda obraz hosil qilmaydi, lekin ularning ongda idrok etilishi orqali jamlangan bilimlar turlicha xarakter kasb etadi. Bundan ularning turli ma’noviy guruhlari paydo bo‘ladi. Ularni guruhlantirish uchun esa bu kabi lisoniy birliklarning ma’no ifodalash uslublariga tayaniladi. Bir so‘z bilan aytganda, emotsional so‘zlar ong va til tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning mahsulidir. Aytaylik, tana lazzatni his qilsa, ko‘pincha ong va tilda bu holat “oh” undovi orqali ifoda etiladi (*Oh, buncha maza!*). Lekin ba’zan aynan shu undov so‘z tanada birdan hosil bo‘lgan og‘riqni ifodalashda ham qo‘llanadi (*Oh, qo‘lim!*). Demak, his-hayajon gaplar insonning bilish qobiliyati uning lisoniy qobiliyati bilan birga hissiy kechinmalariga hamohangligini ko‘rsatadi.

A.I. Smirniskiy undov so‘zlar fikrlash orqali ifodalanmasligi sababli ularning emotsional mazmunini tushunarsiz, anglab va tahlil qilib bo‘lmaydi, deb hisoblaydi¹. Holbuki, har qanday tilning lug‘atida emotsional muloqotning hamma holatlari uchun katta xajmdagi undov so‘zlar mavjud bo‘lib, so‘zlovchi ularni qo‘llash qoidasini biladi va bir-biridan ma’nosiga ko‘ra farqlay oladi. Ehtimol, bu vaziyatda A.I. Smirniskiy nofonematik tovushlar (qichqiriqlar, ingrash va h.k.)ni nazarda tutgan bo‘lishi mumkin.

Hozirgacha emosiyani ifodalashda so‘zning ma’nosi emas, vazifasi muhim, degan qarash yetakchilik qilib kelmoqda. Emotsional so‘zlarning vazifasi esa muomala sharoitida va matnda aks etadi². Emotiv ma’no bilan bog‘liq bo‘lgan

¹ Смирницкий А.И. Значение слова // Вопросы языкознания. –М. 1955. – № 2. – С.80.

² Henie P. Language, thought and culture. Ed. – USA: University of Michigan Press, 1958. P. 58.

murakkab vazifalar uning qay holatda denotativ yoki ekspressiv ma’no komponenti bilan bog‘lanishi, tilda, turli darajada intensiv aks etishida namoyon bo‘ladi.

Emotiv nominatsiya deskriptiv jihatdan qiyoslaganda, emotsional so‘zlarning o‘ziga xos morfologik xususiyatlari, sinxron va diaxron tarkibiy komponentlari, emotiv munosabatni amalga oshirish me’yorlari, vositalari va usullari, tillararo tarjimada o‘zgarish holatlari anglashiladi.

Undov so‘zlarning semantik markirovkalanganligi haqidagi fikrlar, ularning turlicha uslubiy ma’no ifodalashi ilgaridan bir qator ishlarda ko‘rsatilgan va asoslangan³.

Umuman, undovlar, shubhasiz, so‘z hisoblanadi, chunki ular til birliklarining mezonlariga javob beradi. Faqat ular umumlashgan ma’noga ega. Ma’nodagi umumiylik undov so‘zlar, xususan, his-hayajon undovlarining eng xarakterli xususiyatlaridan biridir. Undov so‘zlarning barcha uchun umumiy holda adekvat tushunilishi ularga xos yana bir muhim jihatdir.

To‘satdan paydo bo‘lgan hayajon, hayrat, ruhiy ta’sirlanish mahsuli bo‘lgan undov so‘zlar ixtiyorsiz fikr (mulohaza) ifodasi uchun xizmat qilishi tufayli nutqda avtomatik tarzda qo‘llanadi. Shuning uchun undov so‘zlarda ong va xohish ishtirok etmasligi, nutq avtomatizmi qo‘rinishida aks etishi ularga xos muhim xususiyatlardan biridir. Mana shu jihatdan undov so‘zlar nutq signal tizimidan o‘rin oladi, fikrlash va istakdan xoli bo‘ladi, ularni anglash qiyin kechadi. Bunga ularning bevosita fikrlash orqali ifodalanmasligi, faqat emotsional refleksiya darajasini ko‘rsatishi zamin yaratadi. Undov so‘zlarga xos bu kabi muhim xususiyatlar I.S. Toropsev tomonidan ham ko‘rsatib o‘tilgan⁴.

O‘zbek tilida undovlar dastavval ikki guruhga bo‘linadi:

- 1) emotsional undovlar;
- 2) buyruq-xitob undovlari.

Emotsional undovlar, o‘z navbatida, yana uch guruhni qamrab oladi:

- a) his-hayajon undovlari;
- b) ot xarakteridagi emotsional undovlar (masalan: “Ayol atrofga **dod** (nima? – ovoz) soldi”;
- s) tinglovchiga qaratilgan yoki fe’l xarakteridagi emotsional undovlar (masalan: “Yigit qo‘shnisiga **Hormang**” deb qo‘ydi).

His-hayajon undovlari voqea-hodisaning bevosita ta’siri natijasida tug‘iladigan ruhiy holatni, his-hayajonni va sub’yektning ob’yektga munosabatini anglatadi, lekin o‘sha ruhiy holatni atab ko‘rsatmaydi.

His-hayajon undovlarining emotsional ma’nosi ob’yektiv dunyodan olingan taassurotning kishi ongida umumlashtirilishidan hosil bo‘ladi. His-hayajon undovlari

³ Травничек Фр. Некоторые замечания о значении слова и понятия. – Вопросы языкознания. – 1956. – №1; Искос А.М., Ленкова А.Ф. Выражают ли междометия понятия? Уч. зап. ЛГУ. Сер. филол. наук. – 1958. – Вып. 48. – № 260; Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – М., Высшая школа 1989. 800 с.

⁴ Торопцев И.С. Язык и речь. – Воронеж, 1985. – С.101.

ko‘pincha so‘zlovchining ma‘lum sharoitda o‘z fikrini umumiy mazmunda anglatish ehtiyoji tufayli ishlatiladi.

Undov orqali ifodalangan umumiy fikr, hamma vaqt tinglovchini ham, so‘zlovchini ham qanoatlantira olmasligi boisi ko‘pincha undovdan keyin (ba‘zan avval) boshqa gaplar bilan bu fikr aniqlashtiriladi. Bunda undov o‘sha gaplarning ekvivalentiga o‘xshab qoladi va ularga emotsional rang beruvchi vositaga aylanadi.

Bir undovning o‘zi turli o‘rinda turli xil ottenkadagi kayfiyatni, ruhiy vaziyatni anglatishi mumkin. Ma‘lumki, emotsional ma‘noni ifodalash, odatda, ohang (intonasiya) va unlilarning uzun-qisqaligi, talaffuzning sur‘ati bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

His-hayajon undovlari, asosan, quyidagidir: **i, e, a, o, o‘, ih, ix, eh, ex, ox, oh, uh, hm (him, im), be, xo, he, ha, uf, fu, tuf, dod, voy, xah, obbo, ura, o‘ho‘, o‘hho‘, oho (ohho), aha, eha, ehe (ehhe), iye** va boshqalar.

His-hayajon undovlari ko‘rinishiga ko‘ra uch xil namoyon bo‘ladi:

1. Tovush ko‘rinishidagi his-hayajon undovlari: **i, e, a, o, o‘, yo.**

2. Bo‘g‘in ko‘rinishidagi his-hayajon undovlari: **ih, eh, ah, oh, uh, o‘h, be, he, fu, ho, uf, ey, xah** kabi.

3. So‘z ko‘rinishidagi his-hayajon undovlari: **ie, tuf, ehhe, him, ohho, o‘hhu, kish, pisht, chuh, dod, voy, obbo, ura, salom** singari.

Tovush ko‘rinishidagi his-hayajon undovlarning bir tizimga mansub bo‘lmagan ikki til, ya‘ni ingliz va o‘zbek tilida qo‘llanishini badiiy matnlarning tarjimasi misolida kuzatganimizda, **o‘** tovushidan iborat his-hayajon undovi ingliz tilida uchramasligi o‘z-o‘zidan ayon bo‘ldi. Lekin ingliz tilidan o‘zbek tiliga amalga oshirilgan tarjima matnlarida uning uchrashi kuzatildi. Bunda u ko‘proq **oh** undovining o‘rnida qo‘llanilgani ko‘zga tashlanadi: *Oh! (S.M. Rain, 19) – O‘-ho‘! (A.O. Yomg‘ir, 14).*

O‘zbek tilida **o‘** undovi hayrat, nopisandlik, mensimaslik, inkor etish singari ma‘no ottenkalarini ifodalashga xizmat qiladi. Agar u yuqoridagi misoldagidek **o‘-ho‘** ko‘rinishida qo‘llansa, kuchli hayratni bildiradi: *Watteu! he cried (S.M. The Fortunate Painter, 230) – O‘h-ho‘-o‘, bu Vatoning ishi-ku!- deya xursandchiligini oshkor etdi u. (M.O. Omadi chopgan musavvir, 22).*

Biron kishi tomonidan ilgari surilayotgan fikr yoki xulosani keskin inkor qilishda ko‘pincha u **o‘-o‘** ko‘rinishida takror ishlatiladi: *O‘-o‘, bunga shisha butilka sabab bo‘lgan (A.O. Chandiqli kishi, 76) – Oh, that was due to a bottle that burst when I was opening it (S.M. The Man with the Scar, 76).*

A tovushidan iborat his-hayajon undovi ingliz va o‘zbek tillarida, asosan, e‘tiroz bildirish, taxmin qilish ma‘nolarida qo‘llanadi. Jumladan, *A-a, nazarimda, bugungi kun sizga bir oz noxushroq boshlanganga o‘xshaydi, – dedi chol, otalarcha jilmayib (M.O. Omadi chopgan musavvir, 19)* misolida uning taxmin, chama ma‘nosida ishlatilgani seziladi.

Shunisi borki, tarjima jarayonida asliyatda bo‘lmasa-da, tarjimada undov so‘zlardan foydalaniladi. Yoxud, aksincha, asliyatda mavjud undov so‘z tarjima matnidan tushirib qoldiriladi. Bu holat ularga xos hissiy va modal munosabat ifoda etish xususiyati bilan bog‘liqdir. Aytaylik, *You ought to have been up before dawn like me. Lazy beggar* (S.M. Mackintosh, 107) gapida **a** undovi mavjud bo‘lmasa-da, shu gapning tarjimasida undan foydalanilgan: *Menga o‘xshab tong otmasdan, erta saharda o‘rningizdan tursangiz bo‘lmaydimi, a, ishyoqmas tanbal!* (M.O. Makintosh, 146). Shu asosda ingliz tilidagi darak gap o‘zbek tiliga his-hayajon gap ko‘rinishida o‘girilgan.

O undosh tovushidan iborat undov so‘z o‘zbek va ingliz tillarida tasdiq (O, yes, yes); hayrat va zavq *O! Meybl xonimni aytasizmi? U judayam alomat ayol* (M.O. Meybl xonim, 87) – *She had been a pretty little thing.* (S.M. The Taipan, 570); *O, msye, siz bag‘oyat saxovatpesha va mehribonsiz! – hayqirib yubordi Charli* (M.O. Omadi chopgan musavvir, 22) – *That would be awfully good of you cried Charlie* (S.M. The Fortunate Painter, 230); qoniqish va mamnunlik *O, msye Leir. Marhamat, ichkariga kiring* (M.O. Omadi chopgan musavvir, 15) – *Come in cried Charlie, looking round* (S.M. The Fortunate Painter, 228); ogohlantirish *O, azizim, bilasizmi, siz kabi bugungi avlod yoshlari nihoyatda besabr* (M.O. Omadi chopgan musavvir, 15) – *My dear fellow you young men are so impatient* (S.M. The Fortunate Painter, 228); norozilikni *O-o... jin ursin... tag‘in nimalar qilib yuribsiz, msye?* (M.O. Omadi chopgan musavvir, 31) – *What the dickens are you doing?* (S.M. The Fortunate Painter, 234) ifodalab keladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, tarjima jarayonida asliyatda bo‘lmagan undovlarni qo‘shib tarjima qilish ushbu undov tovushi misolida ham kuzatiladi. Jumladan: *She had been a pretty little thing* (S.M. The Taipan, 570) gapining o‘zbekcha *O, naqadar ajoyib, ofatijon qiz edi u* (M.O. Taypan, 75) tarjimasini kuzatar ekanmiz, unga mutarjim tomonidan qo‘shilgan “o” undovi e’tiborni tortadi. Bu bilan tarjimon ushbu gapning ta’sirchanligini kuchaytirishga tirishgani anglashiladi. Ba’zan bunday holatlarda tarjimonlarning tovush undovlarini takror keltirish orqali intensivlikka erishgani kuzatiladi: *You’re quite a stranger, Mr Mackintosh* (S.M. Mackintosh, 120). Ko‘rinyaptiki, asl matnda **o** undovi yo‘q, lekin uning tarjimasida mavjud. Qolaversa, takror ham qo‘llangan: *O-o, janob Makintosh, biz taraflarda umuman ko‘rinmay ketdingiz* (M.O. Makintosh, 196). Shu orqali tarjima matni ta’sirchanligining orttirilishiga erishilgan.

E tovushidan iborat his-hayajon undovi ingliz va o‘zbek tillarida e’tiroz qatori ma’qullash, hayrat, zavqlanish, nopisandlik, inkor qilish, ikkilanish singari ma’no ottenkalarini ifodalab keladiki, shuning uchun tarjima jarayonida garchi asliyat matnida bo‘lmasa-da, tarjimada ularga o‘rin berish xatolik sifatida qabul qilinmaydi. Masalan, *That’s what I’m always telling her. I can’t get her to enjoy herself* (S.M. Louise, 259) – *E, buni unga doim aytaman. Do‘stlaring bilan o‘ynab kulib yur deb, hech ko‘ndirolmadim* (A.O. Luiza, 96); *Well, you know what she is. She sits there and*

smiles to herself (S.M. Home, 106) – E, uning qanaqaligini bilasiz-ku. O‘rnida o‘tirganicha o‘zicha jilmayadi (A.O. Xonadon, 120).

Ko‘rinyaptiki, misol qilib olingan inglizcha uchala gap tarkibida ham **e** undovi mavjud emas, lekin ularning o‘zbekcha tarjimasida bu undov voqelangan. Bunga, albatta, keltirilgan gaplarning **e** his-hayajon undovi mazmuniga mosligi, ya‘ni birinchi gapning e‘tiroz va inkor, ikkinchi va uchinchi gaplarning esa norozilik ma‘nolarini anglatayotgani asos bo‘lgan.

E undovi kuchli hayratni ham ifodalaydi: *E, ha, hali bu ko‘chirma nusxa deng? – deyarli qichqirib yubordi chol (M.O. Omadi chopgan musavvir, 24) – A copy? Cried Mobsieur Leir (S.M. The Fortunate Painter, 231).* Agar u takror qo‘llansa, kuchli hayrat barobarida kuchli qoniqish hissini ham ifodalay oladi: *E-ee... Ofarin. Qoyil sizga-ey... (M.O. Omadi chopgan musavvir, 30).*

Yo tovushidan iborat his-hayajon undovi o‘zbek tilida ham (“Yo, Olloh, o‘zing qo‘lla!”. “Yo, qudratingdan!”), ingliz tilida (You men!) ham uchraydi va har ikkala tilda ham kuchli hayratni ifodalaydi.

Tabrik undovlari ham rasm-odat undovlari kabi yangi undovlardan bo‘lib, so‘zlovchining biror kishi yoki uning ishini ma‘qullashi, tabriklashini ifodalaydi. Bunga **barakalla, ofarin, balli, rahmat, tashakkur** kabi so‘zlar kiradi. Bunday undov so‘zlarni qo‘llashda kishilarning yoshi va tajribasidan kelib chiqiladi. Negaki, **barakalla, balli** undovlarini etik nuqtai nazardan har doim kattalarning kichiklarga aytishi belgilangan.

O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan **chuh, chix, cho‘k, pisht, kisht, beh-beh, bahbah, ti-ti, tu-tu, kuch-kuch, pish-pish, xix, ix, ishsh, ho‘sh, churey-churey, turey-turey** singari so‘zlar buyruq-xitob undovlari qatoriga kiritiladi. Ular, asosan, hayvonlarni chaqirish, to‘xtatish, da‘vatlantirishga qaratilganligi bilan his-hayajon undovlaridan farqlanadi.

A.S. Dibovskiy undov so‘zlarning nominalizasiya, adverbializasiya, verbalizasiya, sintaktik assimilyasiya xususiyatlariga qodirligini ta‘kidlaydi⁵. Darhaqiqat, aynan nominalizasiya xususiyatiga ega bo‘lgani uchun undov so‘zlar gapda ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarida kela oladi. Masalan:

Undov so‘zning **ega** vazifasida kelishi: *Dod solmang.*

Undov so‘zning **kesim** vazifasida kelishi: *Ishi oh-voh, boshqasini bilmaydi.*

Undov so‘zning **aniqlovchi** vazifasida kelishi: *Nihoyat, ura tovushi yangradi.*

Undov so‘zning **to‘ldiruvchi** vazifasida kelishi: *Bolaning alamli voy-voyiga toqat qilish qiyin edi.*

Undov so‘zning **hol** vazifasida kelishi: *Uning gapiga tuf deb, qo‘l siltadi.*

Demak, emotsional undovlar ot, ravish, fe‘l xarakterida bo‘lib, shunga ko‘ra uchga bo‘linadi. Shundan kelib chiqib, ba‘zan sintaktik vazifa ham bajaradi. Undov

⁵ Дыбовский А.С. Универсальные свойства междометий и их лингвистическое описание. – Владивосток, 1983. – С.29.

so‘zlar sintaktik vazifasiga ko‘ra gapda (gap ichida) va gapdan tashqarida ishlatilishi mumkin.

Shuni aytish kerakki, undov so‘zlar sintaktik vazifa bajarishi, xususan, ega, aniqlovchi va to‘ldiruvchi vazifasida kelishi uchun otlashishi lozim bo‘ladi. Undovlar faqatgina otlashgan holatda turlanadi. Boshqa holatda esa ular turlanmasligi bilan qolgan so‘z turkumlaridan farqlanib turadi. Undovlar maxsus grammatik ko‘rsatkichlarga ham emas. Ular sintaktik qo‘shimchalar (aloqa-munosabat shakllari)ni qabul qilolmasligi hamda leksik (atash) ma‘nosining mavjud emasligi sababidan gap tarkibida boshqa bo‘laklar bilan bog‘lana olmaydi va bunday holatda gap bo‘lagi sifatida tan olinmaydi.

O‘zbek tilidagi undovlarning eng xarakterli sintaktik vazifasi bir tarkibdan iborat bo‘lgan ayrim gap sifatida buyruq, istak, his-hayajon kabi tuyg‘ularni ifodalashida namoyon bo‘ladi.

Undovlarning gap sifatida ishlatilishi ularning semantik jihatdan guruhlanishi bilan bevosita bog‘lanadi. Masalan, tinglovchiga qaratilgan emotsional undovlar bilan buyruq-xitob undovlari fe‘l kesimli gaplar kabi o‘z undalmasiga ega bo‘lishi mumkin. Ammo his-hayajon undovlari, odatda, undalma olmaydi.